

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RLARIDA POETIK OBRAZLAR TIZIMI

**Nurmaxmatova Furuza Rasulovna**

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zbek adabiyotining XX asrdagi rivojiga mislsiz hissa qo'shgan yuksak badiiy mahurat sohibi hisoblanadi. Shoir o'zida chuqur falsafiy fikr mulohazalarni ifodalagan asarlari, badiiy obrazlarining boyligi va samimiy poetic ohangi bilan adabiyotda shuhrat va hurmat qozongan siymodir. U Toshkent shahrida tug'ilib, o'zbek va rus madaniyati o'rtasida mustahkam ko'prik vazifasini bajardi. Faynberg ijodiga xos bo'lgan muhim jihatlardan biri shuki, uning lirikasida poetic obrazlar tizimi nihoyatda boy va mazmuniy jihatdan teran. Shoir tabiat, vaqt, xotira, muhabbat va inson ruhiyati kaqbi mavzularni obrazlar orqali o'quvchiga tushunarli qilib tasvirlaydi. She'rdagi bunday obrazlar yig'ilib mukammal tizimni yaratadi. Poetik obrazlar tizimi- shoirning badiiy tafakkuri, dunyoqarashi va estetik mozitsiyasini ifodalovchi unsurlardan biri. Mazkur maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg she'rlaridagi poetic obrazlar tizimini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** she'riy obrazlar, lirika tahlili, badiiy metafora, ramziy tasvirlar, inson kechinmalari, tabiat tasviri, muhabbat motivi, vaqt va xotira, falsafiy lirika, poetic tizim, estetik ifoda, badiiy talqin.

**Abstract:** Alexander Arkadevich Feinberg is considered a highly artistic figure who made an unparalleled contribution to the development of Uzbek literature in the 20th century. The poet is a figure who has gained fame and respect in literature for his works expressing deep philosophical thoughts, the richness of his artistic images, and his sincere

poetic tone. He was born in Tashkent and served as a strong bridge between Uzbek and Russian culture. One of the important aspects of Feinberg's work is that the system of poetic images in his lyrics is extremely rich and deep in content. The poet describes such topics as nature, time, memory, love, and the human psyche in a way that is understandable to the reader through images. Such images in the poem, gathered together, create a perfect system. The system of poetic images is one of the elements that express the poet's artistic thinking, worldview, and aesthetic mood. This article sheds light on the system of poetic images in the poems of Alexander Arkadevich Feinberg.

**Keywords:** poetic images, lyric analysis, artistic metaphor, symbolic images, human experiences, depiction of nature, love motif, time and memory, philosophical lyrics, poetic system, aesthetic expression, artistic interpretation.

**Аннотация:** Александр Аркадевич Файнберг считается выдающейся фигурой искусства, внесшей беспрецедентный вклад в развитие узбекской литературы XX века. Поэт снискал славу и уважение в литературе благодаря своим произведениям, выражающим глубокие философские мысли, богатству художественных образов и искреннему поэтическому тону. Он родился в Ташкенте и служил прочным мостом между узбекской и русской культурами. Одним из важных аспектов творчества Файнберга является чрезвычайно богатая и глубокая по содержанию система поэтических образов в его лирическом творчестве. Поэт описывает такие темы, как природа, время, память, любовь и человеческая психика, таким образом, что они понятны читателю через образы. Собранные вместе образы в стихотворении создают совершенную систему. Система поэтических образов является одним из элементов, выражающих художественное мышление поэта, его мировоззрение и эстетическое настроение. Данная статья проливает свет на систему поэтических образов в стихах Александра Аркадевича Файнберга.

**Ключевые слова:** поэтические образы, лирический анализ, художественная метафора, символические образы, человеческий опыт, изображение природы, мотив

любви, время и память, философская лирика, поэтическая система, эстетическое выражение, художественная интерпретация.

Adabiyotshunoslikda poetik obraz- bu shoir yoki yozuvchining badiiy tafakkuri orqali yaratilgan estetik tasviri.U real voqelikni san'atkorona talqin qilish orqali paydo bo'ladi.

Faynber ijodiyotida poetik obrazlar tizimi bir necha asosiy guruhlarga bo'linadi:

-tabiat obrazlari

-inson va ruhiy holat obrazlari

-vaqt va xotira obrazlari

-muhabbat obrazlar

-falsafiy ramziy obrazlar

Shoir asarlarida ushbu obrazlarni o'zaro hamohanglashtirib,murakkab poetik tizimni yaratadi.

Obrazlar Faynberg ijodi,lirikasining ajralmas parchasi sanaladi.Shoir tabiat manzaralarini reallikda yuz berib turgan hodisani tasvirlashdan tashqari inson ruhiyati va falsafasini ifodalovchi timsol sifatida foydalanadi.Masalan shoir she'rlaridan birida quyidagi misralar uchraydi:

“Suzayapman, muhabbat, olis

Gulxanlardan o'rlaydi tutun.

Sendan bo'sa oladi yulduz,

Bu qirg'oqdan ketaman bugun.”

Bu satrlarda qo'llanilgan yulduz,tutun va qirg'oq kabi obrazlar ruhiy kechinmalar va muhabbat tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Faynberg tabiat manzaralaridan foydalangan asarlar ko'p hollarda ramziylik talqiniga boy bo'ladi. Masalan, yomg'ir iztirob yoki xotira ramzi bo'lsa, shamol o'zgarish, vaqt o'tishini bildiruvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir she'riy olamida ruhiyat bilan bog'liqlik obrazlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u ko'pincha lirik qahramon ichidan kechayotgan tuyg'ularni tasvirlashga intiladi. Misol uchun, "Varaq" she'rida shoir ijod va so'zning qadri haqida quyidagicha fikr bildiradi:

“Daftarimdan yirtilgan varaq,

Asragin men yozgan she'rlarni.”

Bu o'rinda varaq obrazi oddiy predmetni emas, balki ijod, xotira va so'z qadri ramzi sifatida ko'rsatiladi.

Ijodkor she'riyat yo'lida muhabbat mavzusini alohida e'tibor va mehr bilan ochib berar ekan, bu mavzudagi asarlari badiiy-ma'naviy, qolaversa estetik qiymatini obrazlar qo'llash asnosida oshiradi. Bu obrazlar tizimi aksariyat hollarda tabiat timollari bo'ladi. Faynberg she'rlarida yulduz, tun, shamol, dengiz, sukunat kabi ramzlar birlashib muhabbatning sirli va chuqur mohiyatini ochib beradi.

Faynberg o'z asarlarida o'tgan davr, bolalikdan qolgan xotiralar, tarixiy voqealar va inson taqdiri masalalari yuzasidan fikr-mulohaza yuritib, ularni vaqt va xotira obrazlari bilan yoritib beradi.

Shoir she'rlarida vaqt ramziy obrazlar bilan ifodalanadi. U vaqtni ko'pincha yo'l, shamol, oqim kabi obrazlar bilan ifodalaydi.

Shoir yaratgan obrazlar noyob xususiyatlarni o'zida jamlagan bo'lib, asarlarga badiiy ko'rk baxshida etadi. Ular o'zining ramziylik, sodda va samimiyluk, falsafiylik, tabiat bilan uyg'unlik kabi fazilatlarga ega. Faynberg poetik obrazlarni metafora va razmlar vositasida yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg yaratgan poetik obrazlar zanjiri badiiy va falsafiy jihatdan nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Shoir tabiat, muhabbat, vaqt, xotira va inson ruhiyatiga xos bo'lgan obrazlar orqali murakkab falsafiy fikrlarni badiiy tarzda ifodalagan. Shuning uchun ham Faynberg lirikasidagi obrazlar tizimi zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot obyektini hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Faynberg A.A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

2. Faynberg A.A. Yurakdagi ohang. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001.

scientific-jl.com

3. Karimov N. Zamonaviy o'zbek adabiyoti poetikasi. – Toshkent, 2012.

journalss.org

4. Yuldasheva L. The Main Themes, Motifs and Images of A. Feinberg's Lyrics.

edu.pubmedia.id

5. Shukurova S. Aleksandr Faynberg: Muhabbat – yurak iztiroblarining poetik ifodasi.

scientific-jl.com

6. Mirag'zamova O. Alexander Faynberg: A Bridge Between Two Culture Through Bilingual Poetry.

journal-web.uz

7. Nurmaxmatova F. Aleksandr Faynberg she'rlarida tabiat obrazlari va ramzlari.

journalss.org